

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



BOSHLANG‘ICH TA'LIM FANLAR NAZARIYASI
FANI BO‘YICHA
SILLABUS

Magistratura bo‘lim uchun

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Magistratura mutaxassisligi:	70110401- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim)

Modul / FAN SILLABUSI
Magistratura mutaxassisligi:

70110401- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)

Fan nomi:	Boshlang'ich ta'lim fanlar nazariyasi
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	BTFN 1205
Yil:	2025-2026
Semestr:	II
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	150
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	30
Mustaqil ta'lim	90
Kredit miqdori:	5
Baholash shakli:	imtihon
Fan tili:	o'zbek

Fanning maqsadi (FM)	
F/M1	Fanni o'qitishdan maqsad magistrantlarga tilning sistema ekanligi, fonetika va fonologiyaga oid g'oyalar, o'zbek (rus) tilshunosligida fonetika va fonologiya, morfonologiya, leksema va so'z, morfologiyaning o'rganish birligi, so'z turkumlarining semantik tasnifi, sintaksis predmeti va sintaktik birliklar, gapning mazmuniy tuzilishi, gapning kommunikativ aspekti, gapning presuppozitiv aspekti, qo'shma gaplarning grammatik va semantik tuzilishi, matematik tahlil, algebra va geometriyaga, tabiiy fanlar kontsepsiyasi, biosfera, ekologik omillar, hujayra nazariyasi, texnologiya ta'limining ijtimoiy-pedagogik asoslari, texnologiya ta'limi va tarbiyasining nazariyasi, texnologiya ta'lim va tarbiyasida sharq allomalarning qarashlari, texnologiya ta'lim-tarbiyasi tizimida kasb-hunar turlarining ifodalanishiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.
Ta'lim natijalari (TN)	
<i>Bilim bo'yicha:</i>	
TN1	Magistr quyidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak: tilning tizimli ekanligi, fonetika va fonologiyaga oid tushunchalar, morfologiya, tub va affiksial morfemalarning fonologik tuzilishi, morfologik alternatsiyalar, qo'shma gaplarning grammatik va semantik tuzilishi, vektor algebra nazariyasi, vektor fazolar, vektor fazolar bazasi va o'lchov ko'rsatkichlari biladi.
<i>Ko'nikmalar bo'yicha:</i>	
TN2	Fonetikaning o'rganish aspektlari, ona tilshunosligida fonemalarning xususiyatlari

	va tasnifi, morfonologiyaning o'rganish obyekti, leksikologiyaning asosiy tushunchalari va tahlil usullari, leksema va so'z turlarini bilish
TN3	Magistr tub va affikslarni morfologik jihatdan tahlil qilish, morfologik alternatsiyalarni farqlay olish, leksema tarkibini tahlil qilish va ularning turlarini ajratish, leksemalarning xususiyatlarini tavsiflay olish, leksemalarning o'xshashlik kategoriyalarini aniqlash, so'z va so'z yasashini semantik jihatdan tasniflash, morfologik va sintaktik kategoriyalarni aniqlash
Fan mazmuni	
Mashg'ulot turi: Maruza (M)	
M1	“Ona tili nazariyasi” qismi bo'yicha: Tilning sistema ekanligi
M2	Fonetikaning tadqiqot aspektlari. Fonologiya va fonemika. Fonemalarning differensial va integral belgilari.
M3	So'z turkumlaridagi morfonologik alternatsiyalar. Leksikologiyaning asosiy tushunchalari va tahlil usullari ¹ Hozirgi, kelasi va o'tgan zamon shakllari
M4	Sonning semantik tasnifi. Olmoshning ma'no jihatidan tasnifi.
M5	Fe'l va ravishlarning semantik tasnifi. Sintaksis predmeti. Sintaktik birliklar tarkibi ² . Harakatning zamon shakllari
M6	“Matematika nazariyasi” qismi bo'yicha Matematik analiz: haqiqiy sonlar to'plami.
M7	Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.
M8	Algebra va sonlar nazariyasi: mulohazalar ustida amallar. Mulohazaviy formulalar. Predikatlar va kvantorlar. Predikatli formulalar. To'plam, to'plamlar ustida amallar.
M9	Vektor fazo. Koordinata sistemalarini almashtirish. Affin, dekart va qutb koordinatalar sistemalari.
M10	Maktab geometriya kursidagi yasashga doir masalalar.
M11	“Texnologiya ta'limi nazariyasi” qismi bo'yicha: Texnologiya ta'limining ijtimoiy-pedagogik asoslari
M12	Texnologiya ta'lim va tarbiyasida sharq allomalarning qarashlari; Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi.
M13	Texnologiya ta'lim-tarbiyasi tizimida kasb-hunar turlarining ifodalanishi; Kasb tanlashda mehnat tarbiyasining o'rni
M14	“Geografiya (atrof olam, tabiatshunoslik) nazariyasi” bo'yicha: Tabiiy fanlar konsepsiyasi. Tabiiy fanlar nazariyasi. Tabiatning bir butun yaxlit tizim asosida rivojlanishi.
M15	Demografiya, insonning yashash muhiti. Dunyodagi demografik muammolar. Dunyo aholisi.
¹ COMM 1315 - Public Speaking is designed to introduce students to an in-depth examination of the principles of public speaking // The University of Texas at Dallas/2025 ² COMM 1315 - Public Speaking is designed to introduce students to an in-depth examination of the principles of public speaking // The University of Texas at Dallas/2025	
Mashg'ulot turi: Amaliy mashg'ulot (A)	
A1	“Ona tili nazariyasi” qismi bo'yicha Tilning sistema ekanligi, sistema va struktura, til sistemasining ichki tuzilish xususiyatlari bo'yicha savol-javob o'tkazish, test topshiriqlarini bajarish. Fonetika va fonologiyaga oid g'oyalar, rus va chet el fonologik maktablari bo'yicha savol-

	javob o'tkazish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. O'zbek (rus) tilshunosligida fonetika va fonologiya, fonetikaning tadqiqot aspektlari, fonologiya va fonemika, fonemalarning differensial va integral belgilari, fonologik oppozitsiya va korrelyatsiya, o'zbek (rus) tilshunosligida fonemalarning tasnifi va tavsifi, unlilar tasnifi, undoshlar tasnifi, fonetik hodisalar, prosodika, sillabema, aksentema, intonema bo'yicha savol-javob o'tkazish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish.
A2	Morfologiya, o'zak va affixal morfemalarning fonologik strukturasi, morfonologik alternatsiyalar, so'z turkumlaridagi morfonologik alternatsiyalar bo'yicha savol-javob o'tkazish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Leksikologiyaning asosiy tushunchalari va tahlil usullari, sistem leksikologiya va tarixiylik, leksema va so'z ta'rif, leksema va so'zning tuzilish turlari, leksemaning mazmuni, semema va sema tushunchalari bo'yicha savol-javob o'tkazish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Morfologiya va uning boshqa tilshunoslik bo'limlari bilan munosabati, morfologiyaning o'rganish birligi, so'z va so'z turkumlarining semantic tarkiblari bo'yicha savol-javob o'tkazish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish.
A3	Otlarning semantik guruhlarini bo'yicha savol-javob o'tkazish, tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Sifatlarning ma'no jihatdan tasnifi bo'yicha savol-javob o'tkazish, tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Sonning semantik tasnifi bo'yicha tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Olmoshlarning ma'no jihatdan tasnifi bo'yicha tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish.
A4	Morfologik kategoriyalar tahlili, kelishik kategoriyasi, son kategoriyasi, kesimlik kategoriyasi, qiyoslash kategoriyasi bo'yicha savol-javob o'tkazish, tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Fe'l va ravishlarning semantik tasnifi bo'yicha tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish.
A5	Sintaksis predmeti, sintaktik birligi tarkibi bo'yicha savol-javob o'tkazish, tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Gapning mazmuniy tuzilishi, gap semantikasining propositiv aspekti, sintagmatika, predikat bo'yicha savol-javob o'tkazish, tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Sodda gapning predikat xarakteriga ko'ra tiplari, gapning modal aspekti, gapning kommunikativ aspekti, gapning actual bo'linishi, gapning presuppozitiv aspekti bo'yicha savol-javob o'tkazish, tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish. Qo'shma gap turlarining grammatik va semantik tuzilishi bo'yicha tahlil qoliplarini to'ldirish, mashqlar va test topshiriqlarini bajarish.
A6	“Matematika nazariyasi” qismi bo'yicha “Matematika nazariyasi” fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, dars jarayonida mustaqil ishlashga o'rgatish, topshiriqlar, misol va masalalarni yecha olishi, mashqlar bajarishga erishish ko'zda tutiladi. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika jihozlari, keng ko'lamlil ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularni chuqur o'rganish.
A7	<i>Matematik analiz:</i> to'plamlarning yuqori va quyi chegaralari va oraliqlarini topish; Funktsiyalar ustida arifmetik amallar bajarish; sonli ketma-ketlik limitini topish; Ketma-ketlik yaqinlashish kriteriyasini qo'llash; Funktsiyaning nuqtadagi limitini, ikki

	Funksiya yig'indisi, ko'paytmasi va bo'linmasining limitini topish, berilgan funktsiyaning aniqlanish sohasini topish; monoton funktsiyaning limitini topish; berilgan funktsiyaning aniqlanish sohasini topish; elementar funktsiyalar grafitklarini yasash; ajoyib limitlarni hisblashga doir misollarni yechish; Funktsiyaning nuqtadagi uzliksizligi va funktsiyaning to'plamdagi uzliksizligini aniqlash; bir o'zgaruvchili funktsiyaning hosila va differensialini hisoblash; egri chiziq urinmasi va normalining tenglamalarini tuzish; teskari Funktsiyaning hosilasini topish; yuqori tartibli hosilalar va differensiallarni hisoblash; differensiallanuvchi Funktsiyalarning xossalari va Lopital qoidasini qo'llash; boshlang'ich Funktsiya va aniqmas integralni topish usullarini qo'llash; aniq integralning tadbirlarini qo'llash; funksional ketma-ketliklar va qatorlar, ularni differensiallash, integrallash, oddiy differensial tenglamalarni hisoblash.
A8	<i>Algebra va sonlar nazariyasi:</i> mulohazalar va predikatlar ustida amallar bajarish; to'plamlar ustida amallar bajarish; algebraik amal, algebra, gruppalar, halqa, maydon, algebraik sistemalarga doir masalalar yechish; kompleks sonlar ustida amallar bajarish; chiziqli tenglamalar sistemalarini yechish, matritsalar ustida amallar bajarish; determinantlarni hisoblash; tengsizliklar sistemalarini yechish; butun sonlar halqasida bo'linish munosabati, taqqoslama, chegirmalar halqasi, ko'phadlarning bo'linishi haqida bilish va amalda qo'llash.
A9	<i>Geometriya:</i> vektorlar ustidagi amallar bajarish; tekislikda geometrik yasashlarga, hisoblashga oid masalalarni yechish; tekislikdagi harakatlar klassifikatsiyasi, tekislikdagi affin almashtirishlarga oid masalalar yechish; ikkinchi tartibli chiziq (ellips, giperbola, parabola) tenglamalariga oid masalalar yechish; aylanma sirtlar, ikkinchi tartibli silindrik va konus sirt tenglamalarini tuzish; sirkul va chizg'ich yordamida yasash; tekislikdagi geometrik yasashlarning turli metodlarini qo'llash; sirkul va chizg'ich yordamida yechilmaydigan klassik masalalarni bilish; tekis va fazoviy figuralarning parallel proyeksiyadagi tasvirlarini yasash; Yevklid geometriyasi, N.I.Lobachevskiy geometriyasi, Gilbert aksiomalar sistemasi, aksiomalar sistemasining interpretatsiyasi, aksiomalar sistemasining zidsizligi, erkinligi va to'liqligi haqida tushunchaga ega bo'lish.
A10	“Texnologiya ta’limi nazariyasi” qismi bo’yicha: Milliy qadriyatlarimizda mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi. Ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish va ilmiy-metodik tahlil qilish.
A11	Mehnat tarbiyasida xalq hunarmandchilik turlari; Texnologiyadan amaliy ish jarayoniga integratsion yondoshuv; Kasb-hunarga qiziqish ehtiyojlarini shakllantirishga innovatsion yondoshuv;
A12	Ilmiy tadqiqot ishlarida test, anketa so'rovnomalarini tashkil etish; Tadqiqot ishlarini tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash; Tadqiqot ishi obekti metodlar, tasnifi va tavsifi; Ilmiy tadqiqotlarni qiyosiy o'rganish; Pedagogik tadqiqotlarda information ma'lumotlardan foydalanish.
A13	“Geografiya (Atrof olam, Tabiatshunoslik) nazariyasi” qismi bo’yicha: Tabiatshunoslik fanining ahamiyati va uning rivojlanish bosqichlari. Yer sayyorasi. Yerning yillik va sutkalik harakati. Joy plani va gorizont tomonlari.
A14	Yer qobig'i (Litosfera, Gidrosfera, Atmosfera, Biosfera)
A15	Dunyo iqlimidagi global muammolar. Dunyodagi demografik muammolar.

Mustaqil ta'lim (MT)

1	Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish	45 saat
2	Esse - aktual mavzu bo'yicha o'z fikrini, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon etish	10 saat
3	Berilgan mavzular bo'yicha glossariy tuzish	10 saat

4	Maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash	10 saat
5	O'qish, ilmiy-izlanish ishlarini olib borish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish	10 saat
6	Adabiy adabiyotlar va maktab darsliklaridan misollar to'plash	5 saat

Asosiy adabiyotlar		
1.	58513 Jumayev M. Pedagoglar va psixologlar uchun oliy matematika Toshkent. Toshkent; Turon -Iqbol; 2025-yil. 426 bet.	
2.	55518 Jumayev M. Mutaxassilik fanlarini o'qitish metodikasi. Innovatsiya-Ziyo; 2021 yil	
3.	56209 Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent; Bayoz; 2022	
4.	55961 Hamroyev M. Ona tili va bolalar adabiyoti (1-qism: Ona tili darslik) "Grandkondoprint", Toshkent, 2022-yil	
5.	56103 Hamroyev M. Ona tili va bolalar adabiyoti (1-qism: Ona tili darslik) "Grandkondoprint", Toshkent, 2023-yil	
6	56339 Hamroyev Madrim., Shodmonqulova D., Dosanov N. Ona tili va bolalar adabiyoti (1-qism: Ona tili) Toshkent; 2020	
7	51008 Sharipova D., Xodiyeva D., Shirinov M. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent; Shafot nur fayz; 2020	
8	53395 Vohidova N.X. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent; TDPU 2020	

Qo'shimcha adabiyotlar		
1.	O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi	
2.	Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Satbayeva M. "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" Darslik 2015-yil. Tafakkur bo'stoni.	
3.	Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A. "Texnologiya" 2-sinf darsligi. T., "Sharq" 2018 yil.	
4.	Sanaqulov X.R., M.Rustamova., T.Ismatova. "Boshlang'ich sinflarda mehnatdan sinfdan tashqari ishlar" TDPU 2014 y.	
5	Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Saryiev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Bayoz, 2022. - 304 b.	
6	Pirniyazova A., Q.Pirniyazov, Q.Bekniyazov Baslawish klaslarda ana tilin oqituv metodikasi Nókis «Bilim» baspası 2018-j	
7	Zarimbetova G.K., Maksetova N.K., Najimova A.P., Maksetova A. "Baslawish klassalarda texnologiya talimi ham uni oqituv metodikasi" Oqıw qollanba. Nókis-2025	

Axborot manbaalari		
1.	www.tdpu.uz	
2.	www.pedagog.uz	
3.	www.Ziyonet.uz	
4.	www.edu.uz	
5.	www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi	
6	www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portal	
7	https://dox.utdallas.edu/syl153620	

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 90-100 ball olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi

lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;

b) 89-70 ball olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi

lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

v) 69-60 ball olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi

lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmas;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa; – fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

g) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi qoniqarsiz 59 ball bilan baholanishi mumkin:


- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l quyilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.


Fan o'qituvchisi haqida ma'lumot

Avtor: M.M.Abdijamilova – «Boshlang'ich ta'lim» kafedrası p.f.f.d (PhD).
E-mail: maxfuza@mail.ru
Ish joyi: Nukus davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası
S.S.Tajbenova «Boshlang'ich ta'lim» kafedrası dotsenti, p.f.f.d., (PhD)
Taqrizchilar: S.Shinnazarova - Ajiniyoz nomidagi NDPI ning «Qoraqalpoq tili» kafedrası dotsenti f.i.k.,

Bu Sillabus institut o'quv-metodik Kengashining 2025-yil 23.09 11-sonli majlisi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Bu Sillabus Boshlang'ich ta'lim kafedrasining 2025-yil 25.06 11-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv metodik boshqarma boshlig'i:  A. Abdiev

Magistratura bo'limi boshlig'i:  A.Embergenov

Kafedra mudiri:



Z. Kurbaniyazova

Tuzuvchi:



M. Abdijamilova